

**DUNYONING ENG MASHHUR KASHFIYOTLARI
САМЫЕ ИЗВЕСТНЫЕ ОТКРЫТИЯ МИРА
MOST FAMOUS DISCOVERIES OF THE WORLD**

Karimova Muyassarxon Abduqayumovna – f.f.n.

Andijon mashinasozlik instituti “Gumanitar fanlar” kafedrasida dotsenti

karimova@gmail.com, +998932534155

Turgunova Tursunoy Maratovna

Andijon mashinasozlik instituti magistranti

E-mail: tursunoyturgunova7@gmail.com

Tel: +998997741234

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyoda kashf qilingan eng mashhur kashfiyotlar va ularning inson hayotidagi ahamiyati tahlil qilingan.

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена информация о самых известных открытиях, сделанных в мире и их значении в жизни человека.

Annotation

This article presents information about the most famous discoveries made in the world and their importance in human life

Bir necha asrlardan beri insoniyat o'z hayotini osonlashtirish maqsadida turli izlanishlar olib borgan va orzusini amalga oshirish uchun ilmiy yangiliklar yaratishga harakat qilib kelgan. Hayotdagi qarashlarni tubdan o'zgartirgan va uning ajralmas qismiga aylangan ilmiy yangiliklar kashfiyot deb atalib, u izlanish va tekshiruvlar natijasida, ba'zi holatlarda esa tasodifan aniqlanadi. Kashfiyot qilish uchun tabiat hodisalarini va jamiyat qonunlarini ongli ravishda ilmiy tahlil qilish kerak. Insoniyatga avval ma'lum bo'lmagan obyektiv qonuniyatlar va hodisalar kashfiyot sababli yuzaga chiqadi. Texnika inqilobining asosini tashkil qilishi tufayli taraqqiyotning yangi yo'nalishini bahsh etadi va insoniyat bilim darajasini tubdan o'zgartiradi. Yashash tartibimizni o'zgartirgan va hozirgi kunda hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha kashfiyotlar haqida aytib o'tmoqchiman. Ularga, Rentgen nurlari, Televideniya, Radio, Elektromobillar, Samalyot, Kompyuter, Parashut, Mobil telefon, Elektr energiyasi, Telegraf, Kompass, Fotosurat, Gildiraklar, Kir yuvish mashinasi, Ko'zi ojizlar uchun alifbo, Antibiotik penitsillin, DNK, Internet va yana ko'plab ixtirolarni misol qilish mumkin. Ushbu kashfiyotlarning bir qanchasi haqida to'xtalib o'tmoqchiman.

Internet, dunyo miqyosidagi ijtimoiy tarmoq - insoniyatning eng yaxshi ixtirosi ekanligi hech kimga sir emas. U insonlar hayotini tubdan takomillashtirdi. Internet yordamida hozir dunyoning istalgan chekkasidan turib video orqali qo'ng'iroqni amalga oshirish, masofadan turib ishlash, har qanday qiziqtirgan ma'lumotni izlash, hattoki fazodagi kosmonavtlar bilan ham u yordamida aloqaga chiqish imkoniyati mavjud. Hozirgi kunda yer yuzi aholisining 4 milliardga yaqini undan foydalanib keladi va bu son kun sayin ortib bormoqda. Internet bir vaqtning o'zida havfli yoki foydali bo'lishi mumkin, bu undan qanday maqsadda foydalanayotganimizga bog'liq. U dastlab XX asrning 50-yillarida paydo bo'lgan bo'lib, undan "Sovuq urush" vaqtida AQSh Mudofaa vazirligi ARPA loyihasidan pochta va telefondan foydalanmasdan ma'lumotlarni masofadan uzatish uchun foydalangan. Kaliforniya, Santa Barbara, Yuta va Stenford universitetlari ilmiy tadqiqot markazlari ARPAnet tarmog'ini ishlab chiqdi va uni amaliyotga tadbiq qildi. Unga dastlab ushbu universitetlarning kompyuterlarini uladi, 4 yildan keyin boshqa institutlar qo'shildi va E-mail ixtirosi bilan tarmoqda muloqot qilishni xohlaydiganlar soni keskin o'sishni boshladi. Hozirgi kunga kelib u butun yer yuzi bo'ylab ommalashgan bo'lib, undan 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan odamlar foydalanib kelmoqda

Antibiotiklar insoniyatning tibbiyot sohasidagi kashf qilgan eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Antibiotiklar paydo bo'lishi bilan, sepsis, o'pka yallig'lanishi, o'lat va boshqa ko'plab yuqumli kasalliklar bilan o'lim holati sezilarli darajada oldi olindi. Ushbu dorilar yordamida millionlab insonlarning hayoti saqlab qolindi. XIX asr oxirida insoniyat "yengilmas" deb hisoblangan solgan kasalliklarni mag'lubiyatga uchratdi.

Antibiotik penitsilinni ikki jahon urushi paytida ommaviy ravishda ishlab chiqarildi va hali ham standart antibiotik sifatida infeksiyalarga qarshi qo'llaniladi. Bu tibbiyot sohasida yaratilgan eng mashhur kashfiyotdir.

Ko'zi ojizlar alifbosi fransuz tiflopedagogi Lui Brayl tomonidan kashf qilingan bo'lib, unga 1824 yili asos solingan. Baxtsiz hodisa sabab Brayl Lui 5 yoshida ko'z nuridan ayriladi va ota onasi uni yaxshi ta'lim olishi uchun ko'zi ojiz bolalar uchun mo'ljallangan maxsus chiziqly relyefli maktabga jo'natadi. So'ng u maktabda kapitanlar foydalanuvchi "tunggi shrift" deb nomlanuvchi yozuvga e'tiborini qaratadi. Mazkur yozuvdan harbiy xizmatdagilar kechqurun foydalangan bo'lgan. Ushbu alifboning asosini bo'rtib chiqqan turli shakldagi nuqtalar tashkil qiladi. Alifboda nuqtalarning kombinatsiyalaridan foydalangan holda raqamlar kodlanadi. Ushbu alifboga "Brayl alifbosi" nomi berilgan bo'lib u hozirgi kunda butun dunyoda foydalanib kelinadi. U foydalanishga qulay hisoblanadi va vaqt o'tishi bilan ko'plab tillarga moslashib ketgan.

DNK ni ingliz olimi Frensis Krik va amerikalik olim Jeyms Uotson kashf qilgan bo'lib, unga 1953 yilda asos solingan. Unga ko'ra DNK molekulasida barcha

tirik organizmning axborotini o'zida saqlashi va avloddan avlodga tashishi haqida ma'lumot berilgan. Bu tibbiyot sohasida kashf qilingan eng qiziqarli ixtirolardan biri hisoblanadi va jamiki tirik mavjudotning qanchalik mukammal yaratilganligiga qoyil qolmasdan iloji yo'qligini isbotlaydi.

Elektromobillar yaratish uchun ko'pgina ixtirochilar kurashdilar va unga 1832 yilda Robert Anderson tomonidan asos solindi. Uning urfga kirishi 1870 yillarga borib taqaladi. Ushbu avtomobillarga akkumulyator batareyasi o'rnatilgan bo'lib, bir nechta elektrodvigatel yordamida harakatlanadi. Oddiy avtomobillardan farqli o'laroq, ekologiyaga zarar yetkazmasligi bilan ustun turadi. Chunki atmosferaga zararli tutunlar chiqarmaydi. Tannarxi qimmatligi sababli hali O'zbekistonda urflashmagan lekin, dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlarida, jumladan AQSh, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Norvegiya, Angliya kabi davlatlarda ancha ommalashgan. Davlatlar imkon qadar elektromobillarni ommalashtirishga harakat qilmoqdalar, ko'plab davlatlarda ushbu ekologik havfsiz avtomobil egalariga imtiyozlar berilmoqda. Shu bois bunday mashinalar kelajagi haqida faqat ijobiy taxminlar aytishimiz mumkin.

Samalyot qachon yaratilgan va qanday qilib uchadi degan savol barchani qiziqtirgan bo'lsa ajab emas. Og'irligi kamida 50 ming tonnani tashkil qiluvchi ushbu transport vositasini sanoqli soniyalarda osmonga ko'tarilishi, belgilangan vaqt mobaynida osmonda muallaq turishi va yana sanoqli soniyalarda yerga qo'nishining o'zi bir mo'jiza. Boshqa ko'plab aviaatsiya turlari, jumladan vertolyot, parashut, havo sharlarining ixtiro qilinishi albatta fizik qonularga borib taqaladi va ular inson orzusining ro'yobidir. Uchish haqida insoniyat qadim zamonlardan beri orzu qilib kelgan. Qanotlar yordamida uchishni birinchi bo'lib, Leonardo da Vinchi kashf qilgan. Olim qushlarning qanot qoqishini sinchiklab o'rganib, unga asoslanib deltoplanni yasagan. Hozirgi kunda biz foydalanadigan samalyot turi o'nlab olimlarning yillar davomida mashaqqatli mehnati va izlanishlari tufayli takomillashtirilgan va ushbu holga keltirilgan. Samolyotning uchishi shveysariyalik fizik olim nomi bilan ataluvchi Daniel Bernulli qonuniga amal qiladi. Samalyotning qanoti shunday yasalganki, havo uning yuqori qismiga nisbatan tagidan tezroq oqib o'tadi. Shu sababdan qanotni pastki qismidagi havo bosimi ortishi natijasida ko'tarilish kuchi paydo bo'lib, samolyotni yuqoriga ko'taradi. Samolyot qanotining ko'ndalang qismi huddi qushlarning qanotiga o'xshaydi. Samolyotni yuqoriga ko'tarilishi uchun, uning qanotlari mustahkam bo'lishi zarur. Zamon rivojlangani sari, keyinchalik, samolyotning uchish tezligini oshirish maqsadida nayzasimon o'zgarib turuvchi qanot ixtiro qilindi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kashfiyotlar bizning yashash tarzimizni qulaylashtirishga, og'irimizni yengil, mushkulimizni oson qilishga xizmat qiladi. Har bir ixtironing ortida olimlarning ulkan va mashaqqatli mehnati yotadi. O'tmishda yashab o'tgan olimlardan minnatdor bo'lishimiz lozim. Biz uchun hozirgi kunda oddiy tuyulgan va har bir honadonda mavjud bo'lgan elektr lampochkasi bir vaqtlar

ajdodlarimizga orzu bo'lgan. Buning albatta qadriga yetishimiz kerak, shuni takidlab o'tishni xohlardimki, biz ajdodlarimizdan ko'ra omadliroqmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti 2015.
2. <http://discoveriesoftheworld>
3. <http://worldscience>